O‘zbekistonda mikrobiologiyaning shakllanishi. 1943-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi mamlakatda fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish uchun muhim tashkiliy asos yaratdi. 1947-yilda Zoologiya va botanika instituti tarkibida professor Ye. I. Kvasnikov rahbarligida mikrobiologiya laboratoriyasining tashkil etilishi respublikadagi mikrobiologik tadqiqotlar tarixida muhim voqealardan biri bo‘ldi. 1965-yilda Fanlar akademiyasi tizimida mustaqil Mikrobiologiya bo‘limining tashkil etilishi sohaning tashkiliy va ilmiy jihatdan rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu bo‘limning tashkilotchisi va birinchi rahbari professor S. A. Asqarova bo‘lib, uning faoliyati O‘zbekistonda mikrobiologiyaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi bilan bog‘liqdir. 1977-yilda Mikrobiologiya bo‘limi negizida Mikrobiologiya institutining tashkil etilishi ilmiy tadqiqotlarni ixtisoslashtirish va yangi ilmiy yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun tashkiliy imkoniyatlarni kengaytirdi. Institut faoliyati mikroorganizmlarning sistematikasi, fiziologiyasi, biokimyosi, genetikasi, ekologiyasi va biotexnologiyasi kabi yo‘nalishlarni qamrab oldi [8].

O‘zbekistonda mikrobiologiyaning rivojlanishi alohida olimlarning faoliyati bilan bir qatorda, muayyan ilmiy yo‘nalishlarning shakllanishi orqali ham tavsiflanadi. Mikrobiologiya institutining tarixiy ma’lumotlarida V. I. Runov mikroorganizmlar fiziologiyasi va biokimyosi, A. G. Grinevich mikroorganizmlar seleksiyasi va genetikasi, M. I. Mavloniy esa achitqilar sistematikasi bilan bog‘liq ilmiy yo‘nalishlar doirasida qayd etilgan. Ushbu yo‘nalishlar mikroorganizmlarning hayot faoliyati, irsiy xususiyatlari va biologik xilma-xilligini chuqurroq tushunishga xizmat qildi. Mikroorganizmlarning fiziologik va biokimyoviy jarayonlarini o‘rganish fermentlar, vitaminlar, oqsillar va boshqa biologik faol birikmalarni olish texnologiyalarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, mikroskopik zamburug‘lar va achitqilar sistematikasini o‘rganish mikroorganizmlarni aniqlash, ularni tasniflash va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan shtammlarni tanlab olishda muhim o‘rin tutadi. Mikrobiologiya fanining rivojlanishi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan bir qatorda, oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga ham bog‘liq. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida mikrobiologiya va biotexnologiya yo‘nalishining shakllanishi, mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish mazkur sohaning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Universitetning rasmiy tarixiy ma’lumotlariga ko‘ra, mikrobiologiyaga oid kafedra 1956-yilda dotsent O. G. Yolkina tomonidan tashkil etilgan. Keyingi davrda K. Yu. Musaev, F. G. Axmedova, Ya. F. Nizametdinova, M. L. Mansurova, A. M. Muzaffarov va boshqa olimlar ushbu yo‘nalishda kadrlar tayyorlash va ilmiy faoliyatni rivojlantirishda ishtirok etgan [7]. O‘zbekistonda tibbiy mikrobiologiyaning rivojlanishi va dastlabki ilmiy maktablar O‘zbekistonda tibbiy mikrobiologiyaning rivojlanishi XX asr boshlarida tibbiy ta’lim tizimining shakllanishi bilan uzviy bog‘liq. Mikrobiologiyaning mustaqil fan sifatida o‘qitilishi bo‘lajak shifokorlarni mikroorganizmlarning kasalliklar kelib chiqishidagi o‘rni, infeksion jarayonning xususiyatlari va laboratoriya tekshiruvlarining ahamiyati bilan tanishtirishga xizmat qildi.

Toshkentda mikrobiologiya kafedrasining 1919-yil kuzida tashkil etilishi ushbu yo‘nalishning institutsional rivojlanishidagi dastlabki muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Kafedraning birinchi rahbari professor Aleksey Dmitrievich Grekov bo‘lgan. Dastlabki yillarda asosiy e’tibor umumiy mikrobiologiya bo‘yicha ma’ruzalar o‘qish va talabalarga mikroorganizmlar haqidagi fundamental bilimlarni berishga qaratilgan. 1933-yildan kafedrada professor V. D. Shtiben rahbarligida ilmiy ishlar faollashgan. Jumladan, streptokokklar va tillarang stafilokokklarning xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Bu ishlar patogen mikroorganizmlarning biologik xususiyatlarini aniqlash, ularni farqlash va infeksion kasalliklarni laboratoriyada tekshirishning ilmiy asoslarini rivojlantirishga xizmat qilgan [1]. 1936-yildan professor Pavel Fyodorovich Samsonov kafedraga rahbarlik qila boshlagan. Uning ilmiy faoliyati, ayniqsa, brutsellyoz bakteriologiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, tibbiy mikrobiologiyaning O‘zbekistonda rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Kafedra tarixida P. F. Samsonov O‘zbekistonda tibbiy mikrobiologiya sohasidagi yetakchi olimlardan biri sifatida qayd etilgan. Ushbu davrda mikrobiologik tadqiqotlar infeksion kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilarini o‘rganish bilan cheklanib qolmagan. Shartli-patogen bakteriyalarning biologik xususiyatlari, suvning sanitariya holatini baholash usullari va bakteriologik diagnostika masalalari ham tadqiqotlar doirasiga kirgan. Shu tariqa kafedra faoliyati ta’lim, ilmiy tadqiqot va amaliy tibbiyot ehtiyojlarini birlashtiruvchi yo‘nalish sifatida rivojlangan [1].

Professor P. F. Samsonovning tibbiy mikrobiologiya taraqqiyotidagi o‘rni. Professor P. F. Samsonov O‘zbekistonda tibbiy mikrobiologiyaning dastlabki ilmiy maktablarini shakllantirishda muhim o‘rin tutgan olimlardan biridir. Uning brutsellyoz bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi va keyinchalik kafedraga rahbarlik qilishi ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarning rivojlanishiga asos bo‘lgan [1, 5]. Brutsellyozning bakteriologik jihatlarini o‘rganish tibbiy mikrobiologiya uchun katta amaliy ahamiyatga ega. Chunki kasallik qo‘zg‘atuvchisining biologik xususiyatlari, laboratoriyada aniqlanishi va infeksiyani boshqa kasalliklardan farqlash imkoniyatlari epidemiologik nazorat hamda klinik tashxisni takomillashtirish bilan bog‘liq. P. F.

Samsonov rahbarligida kafedrada ilmiy faoliyatning kengayishi, yosh tadqiqotchilarning jalb qilinishi va mikrobiologik muammolarni tizimli o‘rganishga e’tibor kuchayishi kuzatilgan. Kafedra tarixida tillarang stafilokokk, enterokokklar, sil mikobakteriyalarini serologik tiplash va suvning sanitariya-mikrobiologik ko‘rsatkichlarini aniqlashga oid tadqiqotlar qayd etilgan [1]. Professorning ilmiy merosini baholashda uning shaxsiy tadqiqotlari bilan bir qatorda, kafedrada ilmiy izlanishlar olib borish an’analarini shakllantirgani va tibbiy mikrobiologiyani mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida mustahkamlashga xizmat qilganini ham hisobga olish zarur.

Professor Yu. A. Axmedjanov va tibbiy mikrobiologiyani milliy tilda rivojlantirish. O‘zbekistonda tibbiy mikrobiologiyaning rivojlanishida professor Yunus Axmedjanovich Axmedjanovning faoliyati alohida ahamiyatga ega. U dastlab Samarqand tibbiyot institutida ishlagan, keyinchalik Toshkentdagi tibbiyot instituti mikrobiologiya kafedrasi faoliyatida ham ishtirok etgan. Samarqand davlat tibbiyot universitetining tarixiy ma’lumotlarida uning o‘zbek tilida tibbiy mikrobiologiya bo‘yicha darslik yaratgan olim sifatidagi xizmati qayd etiladi [2]. Yu. A. Axmedjanovning «Mikrobiologiya va virusologiya asoslari» nomli o‘zbek tilidagi kitobi milliy tibbiy ta’limni rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Tibbiyot talabalari uchun murakkab biologik va mikrobiologik tushunchalarni ona tilida bayon qilish fanni o‘zlashtirishni osonlashtirish, maxsus atamalarni shakllantirish va milliy ta’lim resurslarini boyitishga xizmat qiladi [1, 2] Kafedrada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar orasida enterokokklarning biologik xususiyatlari, fermentativ faolligi, toksigenligi va serologik farqlarini o‘rganish muhim o‘rin tutgan. Enterokokklarning ayrim patologik jarayonlardagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan ishlar tibbiy mikrobiologiyaning klinik fanlar bilan integratsiyalashuviga misol bo‘la oladi [1]. Yu. A. Axmedjanovning ilmiy-pedagogik merosi milliy tilda darsliklar yaratish, mikrobiologiya ta’limini takomillashtirish va ilmiy bilimlarni talabalarga yetkazish bilan bog‘liq. Bu tajriba hozirgi davrda ham tibbiy ta’lim mazmunini milliy ilmiy meros bilan boyitish uchun ahamiyatlidir.

Professor I. M. Muhamedovning ilmiy va pedagogik faoliyati. O‘zbekiston tibbiy mikrobiologiyasi rivojlanishini professor Ilomon Muhamedovich Muhamedovning faoliyatisiz to‘liq yoritib bo‘lmaydi. U Toshkent tibbiyot institutida tahsil olgan, mikrobiologiya kafedrasida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borgan va keyinchalik kafedra rahbari sifatida sohaning ta’limiy hamda ilmiy rivojlanishiga hissa qo‘shgan. U 1991-yildan 2012-yilgacha kafedraga rahbarlik qilgan [3, 4]. Professor I. M. Muhamedovning ilmiy faoliyatida odam oshqozon-ichak trakti mikroflorasi, mikrobiotsenozning o‘zgarishi va tashqi omillarning organizmga ta’siri masalalari muhim o‘rin tutgan. Kafedra tarixida uning ilmiy guruhi pestitsidlar ta’sirida ichak mikrobiotsenozining o‘zgarishini o‘rgangani, shuningdek, mikrobiotsenoz buzilishlarining morfologik va immunologik ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqligini tahlil qilgani qayd etilgan [3]. Mikrobiotsenozni o‘rganish tibbiy mikrobiologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Odam organizmidagi mikroorganizmlar hazm jarayonlari, mahalliy himoya mexanizmlari va tashqi muhit omillariga javob reaksiyalarida ishtirok etadi. Shu sababli mikrofloraning tarkibi va funksional holatiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish normal mikrobiota bilan patologik o‘zgarishlar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishga yordam beradi. Professor I. M. Muhamedovning ilmiy faoliyatida mikrobiologiya ta’limini rivojlantirish ham muhim o‘rin egallagan. Uning rahbarligi va tahriri ostida mikrobiologiya, virusologiya va immunologiyaga oid o‘nlab o‘quv adabiyotlari tayyorlangan. Kafedra tarixida o‘zbek tilidagi darslikning lotin yozuvida nashr etilishi, umumiy mikrobiologiya bo‘yicha rus tilidagi darslik va virusologiya bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalarining tayyorlanishi qayd etilgan [3].

Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi ma’lumotida professorning yettita darslik, o‘n bitta o‘quv qo‘llanma va 300 dan ortiq ilmiy nashr muallifi ekani, shuningdek, ilmiy kadrlar tayyorlashda faol ishtirok etgani ko‘rsatilgan [4]. Ushbu ma’lumotlar uning faoliyatini faqat kafedra rahbarligi bilan cheklamasdan, tibbiy mikrobiologiyaning ilmiy va pedagogik taraqqiyoti nuqtayi nazaridan baholash zarurligini ko‘rsatadi. I. M. Muhamedov faoliyatining yana bir muhim jihati — mikrobiologiyani klinik bakteriologik laboratoriya faoliyati bilan bog‘lashga e’tibor qaratilganidir. Kafedra va laboratoriya o‘rtasidagi hamkorlik talabalarning nazariy bilimlarini amaliy tekshiruvlar bilan mustahkamlash, laboratoriya natijalarining klinik ahamiyatini tushunish va mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi [3]. Shu nuqtayi nazardan, professor I. M. Muhamedovning merosi uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishni qamrab oladi: mikrobiologik tadqiqotlar, milliy tilda o‘quv adabiyotlarini yaratish va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash. Samarqand tibbiyot institutida mikrobiologiya ilmiy maktabining shakllanishi. O‘zbekistonda tibbiy mikrobiologiyaning taraqqiyoti faqat Toshkentdagi ilmiy markazlar bilan cheklanmagan. Samarqand tibbiyot institutida mikrobiologiya kafedrasining 1931-yilda tashkil etilishi hududiy tibbiy ta’lim va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutgan [2]. Kafedrani tashkil etishda professor Grigoriy Mixaylovich Semyonov muhim rol o‘ynagan. U tibbiy ta’lim va ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullangan, gelmintologiya va tibbiyot tarixi kabi yo‘nalishlarga ham qiziqish bildirgan. Kafedraning dastlabki faoliyatida uning tashkiliy yordami va talabalarga mikrobiologiya bo‘yicha ma’ruzalar o‘qishi qayd etilgan [2].

Samarqand kafedrasining ilk xodimlaridan biri Sergey Ivanovich Grishin bo‘lgan. U keyinchalik O‘zbekiston ilmiy-tadqiqot tizimida epidemiologiya va mikrobiologiya yo‘nalishidagi faoliyati bilan tanilgan. Yu. A. Axmedjanov ham dastlab Samarqandda ishlab, keyinchalik Toshkentdagi tibbiy mikrobiologiya rivojiga hissa qo‘shgan olimlar qatoriga kirgan [2]. Samarqanddagi ilmiy-pedagogik faoliyatning ahamiyati shundaki, u hududiy tibbiy kadrlarni

tayyorlash, mikrobiologiyani klinik fanlar bilan bog‘lash va respublikada ilmiy maktablarning kengayishiga sharoit yaratgan. Bu tajriba milliy mikrobiologiya tarixini markaziy muassasalar bilan bir qatorda hududiy oliy ta’lim muassasalari faoliyatini ham hisobga olgan holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish tizimida mikrobiologiya. Tibbiy mikrobiologiyani rivojlantirishda oliy ta’lim bilan bir qatorda shifokorlar va laboratoriya mutaxassislarining malakasini oshirish tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazida mikrobiologiya kursi dastlab epidemiologiya kafedrasi tarkibida faoliyat yuritgan, 1948-yildan esa mustaqil mikrobiologiya yo‘nalishi sifatida shakllangan [5]. Rasmiy tarixiy ma’lumotlarda kafedra rahbarlari qatorida professorlar A. D. Grekov, I. I. Ashmarin, Yu. Ye. Kochorovskiy, X. I. Isxakova va boshqa mutaxassislar qayd etilgan [5]. Bu ma’lumotlar mikrobiologiya ta’limi uzluksiz rivojlanganini, sohaga oid bilimlarni nafaqat talabalarga, balki amaliyotda ishlayotgan tibbiyot xodimlariga ham yetkazish tizimi shakllanganini ko‘rsatadi. Malaka oshirish jarayonida bakteriologik tekshiruvlarning zamonaviy usullari, laboratoriya natijalarini talqin qilish, infeksion xavfsizlik va sanitariya-epidemiologik nazorat masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy mikrobiologiya bo‘yicha ta’limning uzluksizligi nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash va shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy-tadqiqot institutining o‘rni. O‘zbekistonda tibbiy mikrobiologiyaning rivojlanishini ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot muassasalarining faoliyati bilan birgalikda tahlil qilish lozim. Epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti 1961-yilda Toshkent shahrida tashkil etilgan. Uning faoliyati epidemiologik va mikrobiologik muammolarni o‘rganish, yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish bilan bog‘liq [6]. Institut tarixida direktorlar qatorida professorlar S. M. Muhamedov, Sh. N. Nazarov, Sh. Sh. Shavaxabov, M. M. Hakimov va M. D. Axmedova kabi olimlar qayd etilgan [6]. Ularning rahbarligi davrida muassasa faoliyatining tashkiliy va ilmiy yo‘nalishlari rivojlangan. Ixtisoslashgan institutlar va tibbiyot oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik mikrobiologik tadqiqotlar natijalarini ta’lim jarayoniga joriy etish, laboratoriya diagnostikasini rivojlantirish va yuqumli kasalliklarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy kadrlar tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. Tibbiy mikrobiologiyaning milliy ilmiy-pedagogik merosi. O‘zbekistonda tibbiy mikrobiologiyaning rivojlanish tarixi bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi. Birinchi yo‘nalish — patogen va shartli-patogen mikroorganizmlarning biologik xususiyatlarini o‘rganish. Ikkinchi yo‘nalish — odam mikrobiotasi va mikrobiotsenozini, tashqi muhit omillarining organizm mikroflorasiga ta’sirini tadqiq etish. Uchinchi yo‘nalish — mikrobiologiyani o‘qitish, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish hamda mutaxassislar tayyorlash.

Professorlar P. F. Samsonov va Yu. A. Axmedjanov faoliyatida bakteriologiya, patogen mikroorganizmlarni o‘rganish va milliy tilda ta’lim berish masalalari muhim o‘rin tutgan. Professor I. M. Muhamedovning ilmiy-pedagogik faoliyati esa mikrobiotsenozni tadqiq etish, darsliklar tayyorlash va ilmiy kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan [1–4]. Mazkur ilmiy merosning yana bir muhim jihati — ta’lim va tadqiqot o‘rtasidagi uzviylikdir. Kafedralarda amalga oshirilgan tadqiqotlar talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, laboratoriya usullarini o‘zlashtirish va klinik muammolarga mikrobiologik nuqtayi nazardan yondashishga xizmat qilgan. Hozirgi davrda ushbu an’analarni davom ettirish uchun mikrobiologiya ta’limiga molekulyar-genetik diagnostika, antibiotiklarga chidamlilikni aniqlash, infeksion nazorat va zamonaviy mikrobiota tadqiqotlarini integratsiya qilish zarur. Bunda tarixiy tajriba faqat o‘tmishdagi yutuqlarni qayd etish vositasi emas, balki yangi ilmiy va pedagogik yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun ham asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Jahon mikrobiologiyasining zamonaviy yo‘nalishlari va ularni O‘zbekistonda rivojlantirish istiqbollari

Hozirgi davrda mikrobiologiya fani an’anaviy bakteriologik tadqiqotlar doirasidan chiqib, molekulyar genetika, genomika, bioinformatika, mikrobiom tadqiqotlari va raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Mikroorganizmlarni faqat morfologik, kultural va biokimyoviy xususiyatlari asosida identifikatsiya qilish bilan cheklanmasdan, ularning genetik xususiyatlari, patogenlik omillari, antibiotiklarga chidamlilik mexanizmlari va epidemiologik tarqalishini kompleks o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Molekulyar mikrobiologiya va genomik tadqiqotlar ham soha taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR), real vaqt rejimidagi PZR va butun genomni sekvenirlash kabi texnologiyalar infeksion agentlarni aniqlash, ularning genetik xususiyatlarini o‘rganish hamda epidemiologik bog‘liqliklarni baholash imkonini beradi. Biroq mazkur texnologiyalarni amaliyotga joriy etish laboratoriyalarning texnik imkoniyatlari, kadrlar tayyorgarligi, sifat nazorati va moliyaviy resurslarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Zamonaviy klinik mikrobiologiyada mikroorganizmlarning bioplyonka hosil qilish xususiyatlarini o‘rganish ham katta ahamiyatga ega. Bioplyonkalar tibbiy asboblar, kateterlar va implantlar bilan bog‘liq infeksiyalarning saqlanib qolishiga hamda ayrim hollarda antimikrob preparatlar ta’sirining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois shifoxona infeksiyalarini nazorat qilishda an’anaviy bakteriologik usullar bilan bir qatorda bioplyonkalarni aniqlash, dezinfeksiya va sterilizatsiya samaradorligini baholash hamda infeksion nazorat choralarini takomillashtirishga e’tibor qaratish zarur. Antibiotiklarga chidamli mikroorganizmlarga qarshi kurashda bakteriofaglardan foydalanish imkoniyatlari ham ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Fagoterapiya ayrim bakterial infeksiyalarda istiqbolli yondashuv sifatida o‘rganilmoqda, biroq uning samaradorligi fagning muayyan

bakteriya shtammiga mosligi, xavfsizligi, preparat sifati va klinik dalillarga bog‘liq. Shuning uchun O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishni rivojlantirish faglarni ajratib olish, ularning litik faolligini aniqlash, xususiyatlarini tavsiflash va tegishli laboratoriya hamda klinik tadqiqotlar o‘tkazishni talab etadi.

Zamonaviy mikrobiologiyada «Yagona salomatlik» (One Health) yondashuvi ham muhim o‘rin tutadi. U inson, hayvon va atrof-muhit salomatligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olib, antimikrob preparatlarga chidamlilik va infeksion xavflarni kompleks o‘rganishni nazarda tutadi [9]. O‘zbekiston sharoitida ushbu yondashuvni rivojlantirish tibbiy, veterinariya va ekologik laboratoriyalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, suv manbalari va oqova suvlardagi mikroorganizmlarni o‘rganish, shuningdek, antibiotiklarga chidamlilik ko‘rsatkichlarini muvofiqlashtirilgan tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Jahon mikrobiologiyasi yutuqlarini O‘zbekistonda joriy etish faqat yangi laboratoriya uskunalarini xarid qilish bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayon zamonaviy diagnostik algoritmlarni ishlab chiqish, laboratoriyalararo sifat nazoratini kuchaytirish, biologik xavfsizlik talablariga rioya qilish, mutaxassislarni qayta tayyorlash va olingan natijalarni klinik qarorlar bilan bog‘lashni ham qamrab olishi lozim. Shuningdek, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida molekulyar mikrobiologiya, antimikrob chidamlilik, mikrobiom va bioinformatika bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish zarur. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda tibbiy mikrobiologiyani rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri milliy ilmiy-pedagogik maktablar tajribasini zamonaviy xalqaro yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishdir. Tarixan shakllangan mikrobiologiya kafedralarining ilmiy va ta’limiy salohiyatidan foydalanish, zamonaviy laboratoriya texnologiyalarini o‘zlashtirish hamda mahalliy infeksion-epidemiologik muammolarga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash sohaning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘zbekistonda tibbiy mikrobiologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi tibbiyot oliy ta’lim muassasalari, mikrobiologiya kafedralari, malaka oshirish tizimi va ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda kechgan. Milliy tibbiy mikrobiologiya taraqqiyoti olimlarning ilmiy yutuqlari, ilmiy-pedagogik maktablar, darsliklar yaratish va ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi bilan tavsiflanadi. Ushbu merosni ilmiy jihatdan o‘rganish va ta’lim jarayonida qo‘llash tibbiy mikrobiologiyani yanada rivojlantirish, milliy ilm-fan an’analarini saqlash va kelajak avlod mutaxassislarini tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: 1) tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida mikrobiologiya ta’limiga molekulyar-genetik diagnostika, antibiotiklarga chidamlilikni aniqlash, infeksion nazorat va zamonaviy mikrobiota tadqiqotlarini integratsiya qilish; 2) molekulyar mikrobiologiya, antimikrob chidamlilik, mikrobiom va bioinformatika bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish; 3) “Yagona salomatlik” (One Health) yondashuvi asosida tibbiy, veterinariya va ekologik laboratoriyalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, antibiotiklarga chidamlilik ko‘rsatkichlarini muvofiqlashtirilgan tarzda tahlil qilish; 4) laboratoriyalararo sifat nazoratini kuchaytirish, biologik xavfsizlik talablariga rioya qilish va mutaxassislarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish; 5) kafedralar, ilmiy maktablar, olimlar va ularning shogirdlari faoliyatini yaxlit jarayon sifatida o‘rganishni davom ettirish va bu tarixiy tajribadan tibbiy ta’lim jarayonida foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Toshkent davlat tibbiyot universiteti. Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi tarixi. Rasmiy veb-sayt. URL: https://microimmuno.medprof.tma.uz/uz/kafedra-tarixi-uz/

2. Samarqand davlat tibbiyot universiteti. История кафедры микробиологии. Rasmiy veb-sayt. URL: https://www.sammu.uz/ru/pages/history_department_microbiology

3. Toshkent davlat tibbiyot universiteti. История кафедры микробиологии, вирусологии и иммунологии. URL: https://microimmuno.medprof.tma.uz/ru/istoriya-kafedra-uz/

4. Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi. Мухамедов Иламон Мухамедович, профессор кафедры микробиологии и фармакологии ТГСИ. 06.01.2025. URL: https://uzmedlib.uz/mukhamedov-ilamon-mukhamedovich-professor-kafedri-mikrobiologii-i-farmakologii-tgsi

5. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. Mikrobiologiya kursi tarixi. URL: https://tipme.uz/uz/pages/structure/faculties/prophylaxis/departments/microbiology_course/history/

6. Epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti. Muassasa tarixi. URL: https://uzinfectology.uz/about

7. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. Mikrobiologiya va biotexnologiya kafedrasi tarixi. URL: https://new.nuu.uz/mikrobiologiya-va-biotexnologiya-kafedrasi/ (murojaat sanasi: 22.10.2026).

8. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti. Institut tarixi. Rasmiy veb-sayt. URL: https://uz.microbio.uz/istoriya-instituta (murojaat sanasi: 22.10.2026).

9. World Health Organization and partner organizations. Quadripartite guidance on One Health integrated surveillance of antimicrobial resistance and use. 2025. One Health Guide.

TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

2026. № 10

Muharrir: Sherzod Qurbonov

Mas’ul kotib: Surmaniso Mirzaliyeva

Dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @munis_sm
Tel.: 97 748 70 03





tibbiyot-talimi-va-innovatsiyalari.uz https://t.me/tibbiyot_2100 Litsenziya raqami: №745444